

"TASDIQLAYMAN"

Xarid komissiyasi raisi,

«Poytaxt Bank» AJ

Boshqaruvi raisining birinchi

o‘rinbosari

D. Isroyilov

2026 yil " 10 " sentabr

**Bir yillik Check Point Firewall dasturiy ta’minoti litsenziyasini xarid qilish va
texnik qo‘llab-quvvatlash xizmati**

XARID HUJJATLARI

Buyurtmachi: «POYTAXT BANK» AJ

Toshkent - 2026 yil

XARID PREDMETI TASNIFI VA TANLOV TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Tanlov predmeti	Tanlov predmeti – bir yillik Check Point Firewall dasturiy ta’minoti litsenziyasini xarid qilish va texnik qo‘llab-quvvatlash xizmati
Savdolarni o‘tkazish davri (oy va yil)	2026 yil sentabr
Moliyalashtirish manbai	«Poytaxt Bank» AJning o‘z mablag‘lari
Boshlang‘ich narx	828 000 000,00 so‘m (Sakkiz yuz yigirma sakkiz million so‘m 00 tiyin) so‘m QQS va boshqa xarajatlar bilan; 739 285 714,29 so‘m (Yetti yuz o‘ttiz to‘qqiz million ikki yuz sakson besh ming yetti yuz o‘n to‘rt so‘m 29 tiyin) so‘m QQSsiz. Xaridning boshlang‘ich narxi dastlabki chegaralangan narx hisoblanadi va xarid qilish jarayonlari yakuniga ko‘ra xaridning yakuniy qiymati aniqlanadi.
To‘lov shartlari	Yetkazib beruvchiga to‘lov milliy valyutada amalga oshiriladi: shartnoma umumiy summasining 30 foizi miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi; qolgan 70 foizi litsenziya faollashtirilgani va 1 yillik texnik qo‘llab-quvvatlash xizmati boshlanganini tasdiqlovchi hujjatlar hamda hisobvara-q-faktura asosida to‘lanadi. Qolgan to‘lov qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida amalga oshiriladi, bunda oldindan to‘lov summasi chegirib tashlanadi.
To‘lov valyutasi	O‘zbekiston Respublikasi so‘mi.
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish joyi va shartlari	Litsenziya elektron shaklda taqdim etiladi va faollashtiriladi. Texnik qo‘llab-quvvatlash masofadan hamda zaruratga ko‘ra quyidagi joylarda ko‘rsatiladi: asosiy ma’lumotlar markazi (IQD) — Toshkent shahri, I. Karimov ko‘chasi, 55-uy; rezerv ma’lumotlar markazi (IQD) — Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Quyoshlik (Erkin) hududi, Qurilish MFY, 290-uy.
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish muddatlari	Litsenziya 30 foiz oldindan to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida taqdim etilishi va faollashtirilishi lozim. 1 yillik texnik qo‘llab-quvvatlash muddati litsenziya faollashtirilgan sanadan boshlab 12 (o‘n ikki) oyni tashkil etadi.

Taklif muddati	Takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati tugagan kundan boshlab kamida 30 (o‘ttiz) kalendar kun.
Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar	Tanlovda Check Point Firewall dasturiy ta’minoti litsenziyasini yetkazib berish va 1 yillik texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yetkazib beruvchilar (ijrochilar) ishtirok etadilar.
Takliflarni qabul qilish muddati	E’lon Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan kundan e’tiboran kamida 15 (o‘n besh) ish kuni.
Tanlov o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining mas’ul kotibi (yoki ishchi organi)	«Poytaxt Bank» AJning Axborotlarni muhofaza qilish bo‘limi xarid komissiyasi ishchi organi hisoblanadi. Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100063, Toshkent shahri, I. Karimov ko‘chasi, 55-uy. Elektron manzil: info@poytaxtbank.uz. Murojaat uchun shaxs: Ulug‘bek Davlatxanov - bo‘lim boshlig‘i (+99893) 588-85-51.

I. TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

1.	Tanlov o‘tkazish shakli	Tanlov «Poytaxt Bank» ichki qoidasi va xarid hujjatiga muvofiq o‘tkaziladi.
2.	Tanlov o‘tkaziladigan joy manzili	«Poytaxt Bank» AJ Bosh ofisi, O‘zbekiston Respublikasi, 100063, Toshkent shahri, I. Karimov ko‘chasi, 55-uy.
3.	Tanlov ishtirokchilari	Tanlov ishtirokchisi (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) xaridlarini amalga oshirish uchun talabgor sifatida tanlovda ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxsdir.
4.	Takliflarni taqdim etish muddatlari	Ishtirokchilar e‘londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay o‘zlarining takliflarini yuboradilar.
5.	Buyurtmachining ishtirokchilar bilan aloqa bog‘lash uchun mas‘ul shaxsi (shaxslari) to‘g‘risida ma‘lumot	Tanlov buyurtmachisi: «Poytaxt Bank» AJ (keyingi o‘rinlarda – Buyurtmachi). Buyurtmachi manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100063, Toshkent shahri, I. Karimov ko‘chasi, 55-uy. Telefon: (+998-71) 214-20-00. Murojaat uchun shaxs: Ulug‘bek Davlatxanov – «Poytaxt Bank» AJ bo‘lim boshlig‘i (+99893) 588-85-51. Shartnoma tuzuvchi: «Poytaxt Bank» AJ.
6.	Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar	Ishtirokchi quyidagilarga majbur: xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etish hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javob berish; asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilish; u g‘olib deb e‘tirof etilgan taqdirda Buyurtmachi bilan mazkur xarid hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzish. Ishtirokchi tanlovda ishtirok etishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi va manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda bu haqda Buyurtmachini xabardor qilishi shart.
7.	Tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi arizani majburiy taqdim etish talabi	Ishtirokchi xarid hujjatlarida ko‘rsatilgan shaklda korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ariza taqdim etadi.
8.	Tanlov taklifini rasmiylashtirish tartibi va uni vizalashga qo‘yiladigan talablar	Tanlov ishtirokchilari tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar ro‘yxati mazkur xarid hujjatlarining 1-ilovasida keltirilgan.

9.	Tanlovda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida majburiy, zarurat bo'lganda, boshqa tillarda tayyorlash to'g'risidagi talab	Tanlovda qatnashish uchun taklif davlat tilida tuziladi. Texnik hujjatlar rus yoki ingliz tilida taqdim etilishi mumkin. Boshqa tildagi hujjatlarga davlat tilidagi yoki rus tilidagi tasdiqlangan tarjima ilova qilinadi. Turli tillardagi matnlar o'rtasida tafovut mavjud bo'lsa, davlat tilidagi matn ustuvor hisoblanadi. Ishtirokchining taklifida metrik o'lchov tizimi ishlatilishi kerak.
10.	Tanlov ishtirokchisi taklifining texnik va narx qismi, ularni baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar	Tanlov ishtirokchisi taklifining texnik va narx qismi to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur xarid hujjatlarining «Texnik qism» va «Narx qismi» bo'limlarida ko'rsatiladi. Ishtirokchilarning takliflarini baholash va tanlov g'olibini aniqlash xarid hujjatida (2-ilova) bayon etilgan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.
11.	Tanlov taklifi ishtirokchi tomonidan Buyurtmachiga taqdim etilgandan keyin unga o'zgartirishlar kiritish va uni rasmiylashtirish tartibi	Xarid hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati yuzaga kelganda, ular xarid hujjatlarini dastlab tasdiqlagan Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Agar kiritilayotgan o'zgartirishlar ishtirokchilar tomonidan takliflarni tayyorlashga ta'sir qilsa, takliflarni taqdim etish muddati ularni tayyorlash uchun yetarli muddatga uzaytiriladi va barcha potensial ishtirokchilarga bir xil tartibda xabar beriladi. Tanlov ishtirokchisi tanlov takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlov taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.
12.	Narxlar va to'lov valyutasini taqdim etish bo'yicha ko'rsatma	Ishtirokchi narx taklifini O'zbekiston milliy valyutasida taqdim etadi.
13.	Tanlov komissiyasiga taklifni taqdim etish tartibiga doir talablar	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi o'z tanlov taklifini mazkur xarid hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq yopiq konvertda taqdim etadi. Tanlov taklifi solingan konvert yopilgan joyi ishtirokchining muhri izi bilan tasdiqlangan holda, konvertning butligi buzilganligini aniqlash imkonini beradigan tarzda muhrlangan bo'lishi kerak. Konvertda tanlov predmetining nomi, Ishtirokchining to'liq nomi va Buyurtmachining nomi ko'rsatiladi. Tanlov taklifi solingan konvert Buyurtmachining mazkur xarid hujjatlarida ko'rsatilgan manziliga tanlov takliflarini qabul qilishning oxirgi muddatiga qadar taqdim etilishi lozim. Tanlov taklifini taqdim etish sanasi va vaqti Buyurtmachining tanlov takliflarini qabul qilish uchun

		mas'ul xodimi tomonidan tanlov takliflarini qabul qilish jurnalida qayd etilgan sana va vaqt hisoblanadi. Tanlov takliflarini qabul qilishning oxirgi muddati o'tganidan keyin taqdim etilgan takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqish uchun Tanlov komissiyasiga kiritilmaydi. Tanlov taklifi solingan konvertlar ularning butligi buzilmagan holda Tanlov komissiyasiga topshiriladi.
14.	Taklifni ta'minlash usuli, miqdori, amal qilish muddati va qaytarish tartibi	Tanlov taklifini ta'minlash talab etilmaydi.
15.	Takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish imkoniyati haqida	Zarurat bo'lganda, Buyurtmachi tanlov takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Tanlov takliflarini taqdim etish muddati uzaytirilgan taqdirda, bu haqda barcha Ishtirokchilarga o'z vaqtida xabar beriladi va yangi muddat belgilanadi. Tanlov takliflarini taqdim etish muddatining uzaytirilishi barcha Ishtirokchilar uchun bir xil tartibda qo'llaniladi. Buyurtmachi zarurat bo'lganda ishtirokchilardan ularning tanlov takliflarining amal qilish muddatini belgilangan qo'shimcha davrga uzaytirishni so'rashi mumkin.
16.	Tanlov doirasida taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning maxfiyligi	Tanlov Ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar, agar ular oshkor qilinishi shart bo'lmagan ma'lumotlardan iborat bo'lsa, maxfiy hisoblanadi va tanlovga aloqasi bo'lmagan shaxslarga oshkor etilmaydi. Buyurtmachi Tanlov komissiyasi bilan birgalikda tanlov Ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan tanlov takliflari, ularga ilova qilingan hujjatlar va tanlovni o'tkazish jarayonida rasmiylashtiriladigan hujjatlarning maxfiyligini ta'minlaydi. Tanlov takliflarini ko'rib chiqish va baholash bilan bog'liq ma'lumotlar tanlov natijalari rasmiylashtirilgunga qadar oshkor qilinmaydi.
17.	Tanlov ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi	Tanlov Ishtirokchilarining takliflari Tanlov komissiyasi tomonidan mazkur xarid hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va baholanadi. Ishtirokchilarning tanlov takliflarini ko'rib chiqish va baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: tanlov taklifining mazkur xarid hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganligini tekshirish; Ishtirokchining malaka talablariga muvofiqligini baholash;

		Ishtirokchi tanlov taklifining texnik qismini baholash; Ishtirokchi tanlov taklifining narx qismini baholash. Tanlov Ishtirokchilarining takliflarini baholash va tanlov g'olibini aniqlash mazkur xarid hujjatlarining 2-ilovasida belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va usullar asosida amalga oshiriladi. Tanlov Ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tanlov takliflarini taqdim etishning oxirgi muddati tugagan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan oshmasligi kerak. Tanlov ishtirokchisi Buyurtmachiga tanlov bo'yicha xarid hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirish berish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida Buyurtmachi, agar so'rov tanlov takliflarini taqdim etish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, tanlov bo'yicha xarid hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirish beradi. Tanlov bo'yicha xarid hujjatlariga doir berilgan tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak. Tanlov g'olibi tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta'minot litsenziyasini qabul qilish litsenziyaning faollashtirilganligini, xarid hujjatlarida belgilangan texnik talablarga muvofiqligini hamda 1 yillik texnik qo'llab-quvvatlash xizmati ko'rsatilishining boshlanganligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ishlar (xizmatlar) natijalarini qabul qilish maqsadida Buyurtmachi belgilangan tartibda Qabul qilish komissiyasini tuzish huquqiga ega. Dasturiy ta'minot litsenziyasi va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini qabul qilishda Yetkazib beruvchi tomonidan litsenziyaning haqiqiyliqi, foydalanish huquqi va ko'rsatilgan xizmatlarga taalluqli hujjatlar hamda rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarga muvofiq boshqa hujjatlar taqdim etiladi. Bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar)ni qabul qilish yakunlari bo'yicha ikki tomonlama dalolatnoma imzolanadi. Qabul qilish komissiyasining maqomi va tarkibi Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.
--	--	---

Ishtirokchilarning takliflarini baholash ketma-ketligi

Ishtirokchilarning takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

taklifning xarid hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganligini tekshirish (1-jadval);

ishtirokchining malaka talablariga muvofiqligini baholash (agar shartlar xarid hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, 2-jadval);

taklifning texnik qismini baholash (3-jadval);

taklifning narx qismini baholash (4-jadval).

Baholash Xarid komissiyasi tomonidan mazkur xarid hujjatlarida belgilangan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Malakaviy yoki texnik talablarga muvofiq bo'lmagan ishtirokchilarning narx qismi baholanmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar RO'YXATI

1-jadval

№	Tanlovda qatnashish uchun qatnashchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh
1	Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi to'g'risida hujjatlar.	Texnik, moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslarining mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan soliq organlariga oxirgi marta taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar (buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot) taqdim etiladi. Shartnoma bo'yicha dasturiy ta'minotni joriy etish, sozlash va bir yillik texnik qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan mutaxassislar to'g'risida ma'lumot 2a-shaklga muvofiq taqdim etiladi.
2	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida hujjat.	Soliq organlari yoki vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risidagi rasmiy hujjat.

3	O'ziga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi to'g'risida kafolat xati.	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
4	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma.	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi to'g'risida ma'lumot.
5	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumot.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazasidan olingan ma'lumot.
6	Ta'sis hujjatlari va faoliyatining qonuniy asoslari hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma.	Ta'sis hujjatlari va davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma.
7	Imtiyozli soliq rejimi yoki axborotni oshkor qilish darajasi cheklangan davlatlar va hududlar (ofshor hududlar), shuningdek yuqori xavfli yurisdiksiyalar bilan aloqadorlik mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumot va kafolat xati.	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
8	Ishtirokchilarning joriy buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ijro etilmaganligi yoki lozim darajada ijro etilmaganligi bo'yicha sud jarayonida emasligi to'g'risida kafolat xati.	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
9	Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud emasligi.	2-shakl va 2a-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
10	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza.	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
11	Taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning texnik topshiriqqa muvofiqligi bo'yicha solishtirma jadval ko'rinishidagi ma'lumot.	4-shakl va 4a-shakl ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.
12	Taklif etilayotgan dasturiy ta'minot litsenziyasiga taalluqli sertifikatlar yoki muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar.	Taklif etilayotgan dasturiy ta'minot litsenziyasining haqiqiyliigi va

		foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.
13	Qo'shimcha kafolatli xizmat muddatini ko'rsatish yuzasidan hujjat.	1 yillik texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish shartlari to'g'risida hujjat.
14	Yetkazib berish muddati tasdiqlangan kafolat xati.	Litsenziyani taqdim etish, faollashtirish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini boshlash muddati tasdiqlangan kafolat xati.
15	Ishlab chiqaruvchining ishonchnomasi/vakolati mavjudligi (agar ishtirokchi taklif etilayotgan dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi bo'lmasa).	5-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
16	O'zbekiston Respublikasida servis markazining mavjudligi to'g'risida ma'lumot.	O'zbekiston Respublikasida texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish imkoniyati to'g'risida ma'lumot.
17	Agar xarid qilinayotgan dasturiy ta'minot bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish uchun litsenziya talab etilgan bo'lsa, tegishli litsenziya.	Agar xarid qilinayotgan dasturiy ta'minot bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish uchun litsenziya talab etilgan bo'lsa, tegishli litsenziya.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

Xarid komissiyasiga**KAFOLAT XATI**

Ushbu xat orqali tasdiqlaymizki, _____:

(xarid ishtirokchi nomi)

qayta tashkil etish yoki tugatish bosqichida emas;

Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati yoki Ishtirokchi tomonidan tan olingan talab bilan tasdiqlanmagan;

(buyurtmachi nomi) bilan avvalgi tuzilgan shartnomalarda lozim darajada bajarilmagan majburiyatlar yo'q;

Ishtirokchiga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-qoidolari joriy etilmagan;

imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va/yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ko'zda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ro'yxatdan o'tmagan va bank hisobvaraqlariga ega emas.

Imzolar:

Rahbar F.I.O. _____

Bosh hisobchi (moliya bo'limi boshlig'i) F.I.O. _____

Yurist F.I.O. _____

Muhr o'rni

_____da rahbar va ta'sischi'lari to'g'risida

MA'LUMOT

№	Familiya, ism va otasining ismi (ism va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi)	Tug'ilgan sanasi	Amaldagi lavozimlar (rahbar / ta'sischi)	Davr	Ta'sischi'ning ulushi (foizda)
1.					
2.					
3.					
...					

Izoh. Oxirgi 2 yillik ma'lumotlar to'ldiriladi.

Rahbarning

F.I.O. _____

Imzo _____

Sana _____

Muhr o'rni

Shartnomani bajarishda ishtirok etadigan mutaxassislar to'g'risida ma'lumot

№	Familiya, ism va otasining ismi (ism va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi)	Tug'ilgan sanasi	Amaldagi lavozimi	Amaldagi lavozimda qaysi davrdan ishlayotganligi
1.				
2.				
3.				
...				

Izoh. Shartnoma bo'yicha dasturiy ta'minotni joriy etish, sozlash va bir yillik texnik qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan mutaxassislar to'g'risida ma'lumot ko'rsatiladi.

Rahbarning

F.I.O. _____

Imzo _____

Sana _____

Muhr o'rni

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana _____

Xarid komissiyasiga

**Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha
BAYONOT**

Ushbu xat bilan tasdiqlaymizki, _____:

(xarid ishtirokchi nomi)

a) quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

xaridlar jarayonida Buyurtmachining biror-bir harakatni amalga oshirishiga, qaror qabul qilishiga yoki biror-bir xarid tartib-taomilini qo'llashiga ta'sir ko'rsatish maqsadida Buyurtmachining hozirgi yoxud sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga bevosita yoki bilvosita har qanday shaklda haq to'lashni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud har qanday boshqa qimmatbaho buyumni yoki xizmatni taklif qilmaslik va bermaslik;

raqobatga qarshi harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan affillanganlik holatlari aniqlanganda;

firibgarlik, ma'lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik;

soxta yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etmaslik, ushbu lotda ishtirok etayotgan affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirmaslik va ularni to'liq oshkor qilish;

b) quyidagilarni tasdiqlaydi:

Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega emas, ijrochini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan muassislar va/yoki xodimlar orasida yaqin qarindoshlari yo'q;

narxlarni yoki tanlov natijalarini buzib ko'rsatish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan til biriktirmagan;

v) xarid hujjatlariga muvofiq:

xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun;

taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar.

Imzolar:

Rahbar F.I.O. _____

Bosh hisobchi (moliya bo'limi boshlig'i) F.I.O. _____

Yurist F.I.O. _____

Muhr o'rni

4-shakl

FIRMA BLANKIDA

_____ tanlovga texnik taklif

№ _____

Sana _____

Xarid komissiyasiga

Hurmatli xonimlar va janoblar!

_____ ni taqdim etish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha xarid hujjatlarini o'rganib chiqqan holda, biz, quyida imzo qo'yuvchilar (tanlov ishtirokchisining to'liq nomi), _____ (taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning nomi va versiyasini ko'rsating) litsenziyasini taqdim etish hamda 1 yillik texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatishni taklif etamiz.

Dasturiy ta'minot _____ (ishlab chiqaruvchini ko'rsating) tomonidan ishlab chiqarilgan.

Biz tanlov g'olibi bilan tuziladigan shartnoma bo'yicha dasturiy ta'minot litsenziyasini ushbu texnik taklifga to'liq muvofiq ravishda taqdim etish, faollashtirish va 1 yillik texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatishni o'z zimmamizga olamiz.

Biz ushbu taklif qoidalariga tanlov takliflarini taqdim etishning oxirgi muddati tugagan kundan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida amal qilishga rozimiz. Ushbu muddat davomida taklif biz uchun majburiy hisoblanadi va belgilangan tartibda qabul qilinishi mumkin.

Ilovalar:

taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning ____ varaqdagi texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;

dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi yoki uning rasmiy dileri (distribyutori) tomonidan berilgan vakolatnoma (5-shakl). Agar tanlov ishtirokchisi dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi bo'lmasa, u 5-shaklga muvofiq vakolatnomani taqdim etishi kerak.

Vakolatnoma ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning O'zbekiston Respublikasidagi rasmiy dileri (distribyutori) tomonidan taqdim etilishi mumkin. Agar vakolatnoma diler (distribyutor) tomonidan berilgan bo'lsa, u bilan birga ishlab chiqaruvchining mazkur diler (distribyutor)ga boshqa firmalar/kompaniyalarga vakolat berish huquqi berilganligini tasdiqlovchi rasmiy xati taqdim etiladi;

dasturiy ta'minotning texnik hujjatlari (texnik tavsif, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma va shu kabilar) yoki taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar;

dasturiy ta'minot litsenziyasining haqiqiylikini va texnik topshiriqda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar.

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxsning F.I.O. va lavozimi)

Muhr o'rni

Sana: 20__yil "___" _____

Taklif etilayotgan dasturiy ta'minot uchun texnik xususiyatlarning qiyosiy jadvali

№	Parametr nomi	Texnik topshiriq talablariga muvofiq ko'rsatkich	Ishtirokchi taklifiga ko'ra ko'rsatkich	Izoh (muvofiq/nomuvofiq)	Tasdiqlovchi hujjatdagi sahifa
	tanlov _____ (taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning nomi va versiyasi)				
1					
2					
3					
4					

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.O. va imzosi

Muhr o'rni

5-shakl

ISHLAB CHIQUYUVCHI FIRMA BLANKIDA

ISHONCHNOMA / VAKOLATNOMA

№ _____

Sana _____

Xarid komissiyasiga

Ushbu ishonchnoma _____
tomonidan berilgan,

(savdoda qatnashuvchi tashkilotning nomi va manzili)

dasturiy ta'minot litsenziyasini taqdim etish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini
ko'rsatish bo'yicha tanlovda ishtirok etayotgan

(dasturiy ta'minotning nomi va versiyasi)

(dasturiy ta'minot litsenziyasini tasdiqlovchi hujjat)

(ishlab chiqaruvchining nomi)

dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi bo'lib

(dasturiy ta'minotning nomi)

_____ manzilida joylashgan

(dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisining to'liq manzili)

ushbu bilan _____ ga tanlov bo'yicha
taklif kiritishga ishonch bildiradi.

(ishtirokchining nomi)

Ushbu vakolatnoma bilan biz tomonimizdan ishlab chiqarilayotgan

(dasturiy ta'minotning nomi va versiyasi)

litsenziyasini taqdim etish va unga 1 yillik texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini
ko'rsatish vakolati beriladi.

Tanlov g'olibi deb e'tirof etilgan taqdirda _____,

(ishtirokchining nomi)

dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

dasturiy ta'minotni texnik topshiriqda belgilangan talablarga va ishlab chiqaruvchining texnik hujjatlariga muvofiq taqdim etish;

dasturiy ta'minot litsenziyasining haqiqiyligini va foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

dasturiy ta'minotning rus yoki ingliz tillaridagi texnik tavsifi, foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi va boshqa texnik hujjatlarini taqdim etish.

Ishlab chiqaruvchining rahbari yoki vakolatli shaxsining F.I.O. va imzosi

Muhr o'rni

Takliflarni baholash usuli – ball usuli. Dastlabki malakaviy tanlovdan o‘tgan va taklifning texnik va narx parametrlarini hisobga olgan holda eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Agar ishtirokchining taklifi majburiylik mezonlariga muvofiq bo‘lmasa, ushbu nomuvofiqlik ishtirokchini tanlovning istalgan bosqichida chetlashtirishga olib keladi.

I. Dastlabki malakaviy baholash tartibi va mezonlari

(jadval ishtirokchilarning malakasiga qo‘yiladigan talablar mavjud bo‘lganda to‘ldiriladi)

2-jadval

№	Mezon	Majburiylik darajasi (majburiy/ ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/ tizimli)	Izoh
1	Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi.	Majburiy	Ekspert	Texnik, moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslarining mavjudligi to‘g‘risida hujjatlar (so‘nggi marta soliq organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar (buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot) taqdim etiladi. Shartnoma bo‘yicha dasturiy ta‘minotni joriy etish, sozlash va bir yillik texnik qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan mutaxassislar to‘g‘risida

№	Mezon	Majburiylik darajasi (majburiy/ ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/ tizimli)	Izoh
				ma'lumot 2a-shaklga muvofiq taqdim etiladi. Agar ushbu hujjatlar bo'lmasa, ishtirokchi tanlovda qatnashishdan chetlashtiriladi.
2	Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik.	Majburiy	Ekspert	Ta'sis hujjatlari va davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma.
3	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.	Majburiy	Ekspert	Soliq organlari tomonidan taqdim etilgan yoki haqiqatda soliqlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan rasmiy hujjat. Taqdim etilmasa yoki qarzdorligi mavjud holatlarda ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.
4	O'ziga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi.	Majburiy	Ekspert	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi. Taqdim etilmasa ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.
5	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi.	Majburiy	Ekspert	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ma'lumot. Taqdim etilmasa yoki reyestrda mavjud holatlarda ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.

№	Mezon	Majburiylik darajasi (majburiy/ ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/ tizimli)	Izoh
6	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi.	Majburiy	Ekspert	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazasidan ma'lumot. Taqqim etilmasa yoki majburiyatlari mavjud holatlarda ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.
7	Imtiyozli soliq rejimi yoki axborotni oshkor qilish darajasi cheklangan davlatlar va hududlar (ofshor hududlar), shuningdek yuqori xavfli yurisdiksiyalar bilan aloqadorlik mavjud yoki mavjud emasligi.	Majburiy	Ekspert	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi. Taqqim etilmasa ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.
8	Ishtirokchilarning joriy buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ijro etilmaganligi yoki lozim darajada ijro etilmaganligi bo'yicha sudda ishi (shu jumladan, arbitraj munosabatlari mavjud bo'lgan ishtirokchilar) ko'rilganligi.	Majburiy	Ekspert	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi. Taqqim etilmasa ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.
9	Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud emasligi.	Majburiy	Ekspert	2-shakl va 2a-shaklga muvofiq rasmiylashtirilgan ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Agar ushbu shakllar taqqim etilmasa yoki manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari aniqlanganda ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.

№	Mezon	Majburiylik darajasi (majburiy/ ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/ tizimli)	Izoh
10	Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza.	Majburiy	Ekspert	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi. Taqdim etilmasa ishtirokchi keyingi bosqichga qo‘yilmaydi.

Malakaviy baholashdan o‘tmagan hujjatlar to‘plamlari tanlovda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

II. Taklifning texnik qismini baholash:

Baholash taqdim etilgan texnik taklif hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Takliflari texnik baholashdan o'tmagan ishtirokchilar tanlovda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

Texnik baholash mezonlari:

3-jadval

№	Mezon	Baho, ball	Majburiylik darajasi (Majburiy/Ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/tizimli)	Izoh
1.	Texnik topshiriqqa muvofiqligi	0 yoki 10	Majburiy	Ekspert	4-shakl va 4a-shakl ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqning har bir bandi bo'yicha ishtirokchi taklif etilayotgan dasturiy ta'minotning texnik topshiriq talablariga to'liq muvofiqligini tasdiqlovchi izoh va ma'lumotlarni texnik muvofiqlik jadvalida ko'rsatishi shart. Shuningdek, ishtirokchi to'ldirilgan texnik muvofiqlik jadvalining doc (Microsoft Word) formatidagi elektron
	Muvofiq kelmasa	0			
	Muvofiq kelsa	10			

№	Mezon	Baho, ball	Majburiylik darajasi (Majburiy/Ixtiyoriy)	Baholash usuli (ekspert/tizimli)	Izoh
